

**Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish usullari.****Termiz Davlat Pedagogika instituti****Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti****Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi****Allayorova Aziza****Ilmiy rahbar: Azimova Dilfuza****Annotatsiya.**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun samarali o‘qitish usullari tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning nutqiy va yozma ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlar, o‘yinlar, individual yondashuvning ahamiyati ta‘kidlanadi. Shuningdek, dars jarayonini qiziqarli va mazmunli qilish orqali o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:**ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tutgan o‘rni, interfaol metodlar ,ona tili va o‘qish savodxonligi, darslarini nazariy asoslari, multimediali darslar,proyektli ta‘lim, differensial yondashuv.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili fanining o‘qish savodxonligi bosqichi bolalarning kelajakdagi ta‘limiy faoliyatiga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Zero, ilk sinflarda o‘quvchilarda to‘g‘ri, ravon va ongli o‘qish, yozish, fikrni ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat til va adabiyot fanlari, balki boshqa barcha fanlar bo‘yicha ham muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu bosqichda ona tili darslarini samarali tashkil etish, innovatsion usullardan foydalanish, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish bugungi ta‘lim jarayonida dolzarb masalalardan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini shakllantirish — o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va tafakkur qilish salohiyatini oshirishning muhim bosqichidir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda, har bir o‘quvchining yosh xususiyati, qiziqishi va individual ehtiyojlarini inobatga olishi lozim.

### 1. Interfaol usullardan foydalanish

Interfaol metodlar — o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Bilaman – Bilmoqchiman – O‘rgandim” kabi usullar orqali matn ustida ishlash, tushunilganini ifodalash va o‘z fikrini bayon etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa savodxonlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

### 2. O‘yin texnologiyalari.

O‘yinlar kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun eng qulay ta‘lim shakllaridan biridir. Harflarni o‘rganishda, so‘z va gap tuzishda, nutqni rivojlantirishda didaktik o‘yinlar, topshiriqli krossvordlar va rol o‘yinlarining samarasi katta bo‘ladi. Bu nafaqat savodxonlikni oshiradi, balki o‘quvchida ona tiliga nisbatan mehr uyg‘otadi.

### 3. Vizual vositalardan foydalanish.

Tasviriy materiallar — darsni jonlantirish, tushunchalarni ongli o‘zlashtirishga yordam beruvchi vositalardir. Harf va so‘z kartochkalari, rasmlar asosida hikoya tuzish, interaktiv doskada ishlash orqali o‘quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglaydi va o‘z fikrini aniq ifoda etishga intiladi.

### 4. Differensial yondashuv

O‘quvchilar individual qobiliyatga ega bo‘lganligi sababli, dars jarayonida differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli o‘quvchilarga murakkab topshiriqlar berish, sustroq o‘quvchilarga qo‘shimcha yengillashtirilgan ko‘mak ko‘rsatish orqali har bir bola o‘z imkoniyatiga mos tarzda rivojlanishiga erishiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining nazariy asoslari Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarning til bilan bog‘liq boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu darslar orqali o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq, savodli o‘qish, tushunish va fikr bildirish, tovush-harf tizimi, so‘z boyligini kengaytirish kabi asosiy til kompetensiyalari shakllanadi.

Ushbu fan darslarini tashkil etishda bir nechta muhim nazariy asoslar mavjud:

#### 1. Tilni o‘rganishning psixolingvistik asoslari

Psixolingvistika tilni o‘rganish jarayonida inson tafakkuri va psixologik jarayonlar qanday ishlashini o‘rganadi. Yosh bolalarning eshitish, idrok etish, yod olish va diqqatini jalb etish qobiliyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, darslar qisqa, qiziqarli va ko‘rgazmali bo‘lishi kerak.

#### 2. Bosqichma-bosqich o‘qitish nazariyasi

O‘qish va yozishni o‘rgatish bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshiriladi: tovush-harfni tanish, harflarni yozish, so‘z va gap tuzish, matnni tushunish va ifodalash. Har bir bosqich o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi.

Proyektli ta'lim yondashuvi va uning o'qish savodxonligi darslaridagi o'rni.

Zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy bilim berish usullaridan faol, interfaol va o'quvchini markazga qo'ygan metodlarga o'tilmoqda. Shunday metodlardan biri – projektli ta'lim bo'lib, u o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, axborotni qayta ishlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda projektli ta'limni ona tili va o'qish savodxonligi darslariga integratsiya qilish, o'quvchilarni darsga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish — o'quvchilarning savodli, fikrlay oladigan, muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllanishida muhim omildir. Ushbu darslarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar, projektli ta'lim, differensial va kommunikativ yondashuvlar qo'llanishi darslarning mazmunini boyitadi va samaradorligini oshiradi. O'yin texnologiyalari, ko'rgazmali vositalar va mustaqil izlanish asosidagi topshiriqlar esa o'quvchilarda ona tiliga nisbatan qiziqish, nutqiy faollik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T.: Sharq 1997
3. SH.M.Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asari. 1-jild, Toshkent, -"O'zbekiston" 2019.
4. Solnoma. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoev faoliyat xronikasi. Toshkent - "O'zbekiston", 2022. 5.
5. Imom Buxoriyning "Odob durdonalari" (Al-Adab al-mufrad) 6.
6. R.X.Djuraev. Prezident SHavkt Mirziyoev yoshlarda ma'naviyatni tarbiyalash haqida.
7. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. <http://www.president.uz/uz/lists/viw/> 8. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar

kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

<https://president.uz/oz/lists/view/3864>

9. Azimova D. The main Peculiarities of web tool 2 during teaching //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 584-588. 10.

A. D. (2022). On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period. Middle European Scientific Bulletin 11. A.

D. (2023). Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 18, 164-166. 12. Azimova D.

The main Peculiarities of web tool 2 during teaching //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 584-588.

13. Azimova D. SAVOD O ‘RGATISH DAVRIDA O ‘QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1

Tursunova, S. (2024). Innovatsion yondashuv asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining og ‘zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(10), 176-185.

Ismatova, N., & Tursunova, S. I. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. *Interpretation and researches*, 2(1).

Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashning imkoniyatlari. *Interpretation and researches*, 2(1).

Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. *Interpretation and researches*, 2(1).

Tursunova, S. I. Uzbekistan is a country of friendship. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 185-189.

Пономарева, Л. И., & Турсунова, С. И. (2023). Теоретические основы проблемы обучения младших школьников элементам рассуждения в процессе знакомства с художественными произведениями. *Вестник Шадринского государственного педагогического университета*, (2 (58)), 53-59.

Турсунова, С. И. (2022). Педагогические основы национализации школьного образования. *ТГПИ. 2022 год*.

Турсунова, С. И. (2024). Развитие словесного творчества младших школьников на уроках литературного чтения. *Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология.-Научный журнал:-Ялта: РИО ГПА*, (82), 284-287.

Tursunova, S. I. (2024). SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *World of Scientific news in Science*, 2(6), 137-143.

Isakovna, T. S. Linguistic-methodological problems of the development of oral speech in primary classes of national schools. *Teacher of the Department of Primary Education, Termiz State Pedagogical Institute*.

Tursunova, S. I., & Raxmatullayeva, F. A. (2025). MATN TURLARI, ULARNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(3), 602-607.

Tursunova, S. I. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDA PUNKTUATSIYAGA OID BERILGAN MATERIALLAR TAHLIL QILISH. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, 2(1), 342-347.

Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *International Journal of Pedagogics*, 3(04), 1-11.

Tursunova, S., & Kh, T. M. (2023). REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Journal of Pedagogics*, 3(04), 12-20.

Tursunova, S. (2023). REASONS FOR CHOOSING MODELS OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRIMARY SCHOOLCHILDREN. *Science and innovation*, 2(B11), 262-266.

Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. *Общество и инновации*, 3(8/S), 179-186.

Tursunova, S. (2025). CUMINUM CYMINUM LO 'SIMLIGINING MORFOBIOLOGIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(10), 171-176.

Tursunova, S. (2025). ABDULLA QODIRIY-O'ZBEK ROMANCHILIGI ASOSCHISI. *Modern Science and Research*, 4(4), 989-995.

Tursunova, S. I. (2025, April). ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 4, pp. 60-64).